

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDUTURAPOV JASURBEK NOZIMJONOVICH

**MILLIY IQTISODIYOTDA SOLIQ YUKINING SHAKLLANISH
XUSUSIYATLARI VA OPTIMALLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Abdaturapov Jasurbek Nozimjonovich

Milliy iqtisodiyotda soliq yukining shakllanish xususiyatlari va optimallashtirish
istiqbollari3

Абдугурапов Жасурбек Назимжанович

Особенности формирования налоговой нагрузки в национальной экономике и
перспективы ее оптимизации27

Abdaturapov Jasurbek Nozimjonovich

Features of the formation of the tax burden in the national economy and prospects
for optimization.....53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDUTURAPOV JASURBEK NOZIMJONOVICH

**MILLIY IQTISODIYOTDA SOLIQ YUKINING SHAKLLANISH
XUSUSIYATLARI VA OPTIMALLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3240 raqam bilan ro'yxatga olingan.


Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)ga joylashtirilgan.

| | |
|----------------------------|--|
| Ilmiy rahbar: | To'rayev Shavkat Shuxratovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor |
| Rasmiy opponentlar: | Tashmuradova Buvsara Egamovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor Nasimov Ravshanjon Azimovich iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent |
| Yetakchi tashkilot: | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi |

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "23" yanvar kuni soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 232-54-21; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1576 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (71) 232-54-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "06" yanvar kuni tarqatildi.
(2025-yil "06" yanvar daqi 6 raqamli reyestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Soliq solishning maqbul darajasining ilmiy asoslari va soliqlarni tartibga solishning ilg'or usullari global miqyosda davlat moliyasini ta'minlash muammosini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Soliq yukini mumkin qadar kamaytirish orqali iqtisodiy faollikni oshirish, ish o'rinlarini yaratish hamda aholi farovonligini yuksaltirish davlat boshqaruvining muhim bo'g'inlaridan hisoblanadi. Hukumatlar tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarga qaramay, bugungi kunda aksariyat mamlakatlarda soliq yuki yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. Bu ko'rsatkich ayniqsa Evropaning rivojlangan davlatlarida sezilarli darajada baland bo'lib, jumladan «Daniyada – 46,3 foizni, Fransiyada – 45,4 foizni, Belgiyada – 42,9 foizni, Italiyada – 42,5 foizni, Finlandiyada – 42,2 foizni tashkil qiladi»¹. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, «mazkur tashkilotga a'zo mamlakatlarda ishchi kuchiga o'rtacha soliq yuki so'nggi yigirma yil ichida atigi 1,4 foiz punktga kamaygan xolos. Ushbu ko'rsatkich 2000-yilda o'rtacha 36,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 34,8 foiz tashkil qilgan. Soliq yukining eng past darajasiga esa 2009-yildagi moliyaviy inqirozdan keyin erishilgan»². Demak, jahon miqyosida soliq yukining shakllanish xususiyatlari va optimallashtirish istiqbollari tadqiq etishning dolzarbligi oshmoqda.

Globalashuv va o'sib borayotgan xalqaro raqobat sharoitida soliq yukini optimallashtirishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlarning aksariyati soliqqa tortishning maqbul darajasini aniqlash, aholining turli guruhlari va iqtisodiyotning tarmoqlararo soliq yukining taqsimlanishini izchil tahlil qilish, shuningdek, soliq siyosatining iqtisodiy faoliyat va investitsion jozibadorlikka ta'sirini baholashni qamrab olishga qaratilgan.

Yangi O'zbekistonda soliq tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishi bo'lgan soliq yukini imkon qadar pasaytirish orqali makro va mikroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga e'tibor qaratilmoqda. «Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi. ...Umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi farqning sezilarliligi, soliq to'lovchilar tomonidan xodimlarning real sonini va mehnatga haq to'lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to'lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi»³ kabi muammolarning mavjudligi soliq yukiga oid ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda. Iqtisodiyotdagi kutilayotgan tarkibiy o'zgarishlar soliq yukini optimallashtirish muammosida alohida ahamiyat

¹ <https://wisevoter.com/country-rankings/highest-taxed-countries/>

² <https://taxfoundation.org/data/all/eu/tax-burden-labor-europe-2024/>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.06.2018-yildagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida»gi PF-5468-son Farmoni. – www.lex.uz

kasb etadi. Yaqin kelajakda soliq tushumlarining qisqarishi soliq yukini optimallashtirish uchun shoshilinch choralarini talab qiladi. Soliq yukini optimallashtirish esa davlatning barqaror iqtisodiy o'sishi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi. Shu munosabat bilan soliq yukini optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ilmiy va amaliy asoslash ayniqsa dolzarb bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son «Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida»gi, 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098 son «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2021-yil 15-sentyabrdagi PF-6314 son «Tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son «Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan soliq solish bo'yicha vazifalarni yanada samarali amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Soliq yuki nazariyasi va uning takror ishlab chiqarish jarayonlariga ta'siri masalalari iqtisod fani klassiklari: A.Vanger, J.Keyns, K.Marks, U.Petti, D.Rikardo, A.Smit asarlarida o'z aksini topgan⁴. Xorijiy adabiyotda A.Laffer, J.Seymur, D.Evans, M.Kin, M.Feldsteyn, L.Ebrillarning soliq yukiga bag'ishlangan qator asarlari mavjud.⁵

Soliqqa tortish og'irligining xalq xo'jaligi rivojiga ta'siri bo'yicha juda qimmatli tadqiqotlar rus soliq olimlari: P.V.Mikeladze, E.Kun, N.I.Turgenev, K.F.Shmeleva, E.Balatskiy, V.G.Panskov, V.M.Pushkarova, D.V.Lazutina, M.I.Litvin, E.A.Kirova, D.G.Chernik va boshqalarning ishlarida keltirilgan.⁶

⁴ J.Keyns. «Bandlik, foizlar va pulning umumiy nazariyasi». - M.: Taraqqiyot, 1978., A.Smit. «Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini o'rganish», T. 2. M.: Sotekgiz, 1935., K.Marks «Kapital» 1-to'plam, Public Domain, 1867., D.Rikardo «Siyosiy iqtisod va soliqqa tortishning boshlanishi». Ingliz tilidan P.N.Klyukina tajrimasi. — M.: EKSMO, 2008., U.Petti «Soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi risola». M.: 1997.

⁵ A.Laffer, J.Seymur bilan hamkorlikda «Soliqlardan qochishning iqtisodiy nazariyasi» (The Economics of the Tax Revolt), 1979., D.Evans, B.Berman. «Marketing» - M.: Iqtisodiyot, 1990., L.Ebrill, M.Kin va boshqalar «Zamonaviy qo'shilgan qiymat solig'i». – «Dutun dunyo» nashriyoti, Moskva, 2003., M.Feldsteyn «Kapitalga soliq solish» Garvard universiteti, 1983.

⁶ «SSSR va xorijiy davlatlarda soliq yuki» P.P.Gensel, P.V.Mikeladze, V.N.Strogiiy, K.F.Shmelevlar tomonidan tayyorlandi– M.: SSSR NKF Moliya nashriyoti, 1928., E.Kun. «Rossiya va Evropaning boshqa muhim mamlakatlarida soliq yukini qiyosiy o'rganish tajribasi». SPb.: 1913., N.I.Turgenev. «Soliqlar nazariyasi tajribasi», M., 1937., E.V.Balatskiy, «Reproduktiv sikl va soliq yuki». 2000. 1-nashr., V.G.Panskov, «Rossiya Federatsiyasida soliqlar va soliqqa tortish». M.: Kitob dunyosi, 1999., V.M.Pushkareva, «Soliq solishning og'irligini hisoblash muammosini hal qilishda rus moliyachilarining hissasi». Moliya, 2004., D.V.Lazutina. «Soliq yuki va uni hisoblash

O‘zbekistonning zamonaviy soliq tizimida soliq yukini shakllantirishning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan fikrlar T.Malikov, S.R.Adizov, Q.Yaxyoev, O.Z.Gaybullaev, Sh.To‘raev, K.Hotamov, B.Sanaqulova, Q.T.Bozorov, S.R.Adizov B.Isroilov, S.Sultanova, I.Niyazmetov, Z.Qurbonov, F.Isaev, Q.Tuxsanov, U.Normurzaev, U.Rajabov kabi yetakchi olimlarning asarlarida keltirilgan⁷.

Ushbu mualliflarning soliqqa tortish nazariyasini rivojlantirishga qo‘shgan katta hissalariga qaramay, shuni ta’kidlash kerakki, turli xil iqtisodiy sharoitlar uchun soliq yukining maqbul parametrlarini aniqlashga qaratilgan empirik tadqiqotlar sezilarli bo‘shliqlarni ko‘rsatmoqda. Mazkur holatlar tadqiqot mavzusini tanlashni, uning maqsadlari va muhim vazifalarini belgilab berdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi sharoitida bank-moliya, soliq, va investitsiya faoliyatini modernizatsiyalash muammolarini ilmiy ishlab chiqish» mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistondagi soliq yuki bilan bog‘liq mavjud vaziyatni chuqur tahlil qilish va uzoq muddatda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash uchun uni optimallashtirish bilan bog‘liq taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

soliq yukining ilmiy-nazariy asoslarini izchil tahlil qilish;

O‘zbekistonda soliq yukining shakllanishi va taqsimlanishi to‘g‘risidagi empirik ma’lumotlarni tadqiq etish va tasniflash;

soliq yuki va soliq imkoniyatlarining mamlakatning iqtisodiy o‘shishi va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sirini baholash, ularni metodologik tahlil qilish;

soliq yuki omillar ta’siri ostida infratuzilmada o‘zgartirish tendensiyalarni aniqlash;

usullari». Tyumen, 2005-yil., M.I.Litvin, “Soliq yuki va korxonalarining iqtisodiy manfaatlari». Moliya, 1998. 5-son., Yu.Fokin, E.Kirova. “Soliq yuki, muammolar va yechimlar». Iqtisodchi, 1998. 10-son., D.G.Chernik, “Soliq tizimining asoslari». - M.: YUNITI, 2002.

7 Malikov T. "Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari". T.: Akademiya nashri. 2002 y., Adizov S.R. "Soliq yukining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini modellashtirish».08.00.06 - Ekonometrika va statistika ixtisosligi iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferati. Toshkent-2018. 25 b., Yaxyoev Q.A. "Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti». -T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003 y 19-b., Gaybullaev O.Z. "Soliq yukini baholashni takomillashtirish». 08.00.07-moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo‘yicha iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent-2004. 24.b., To‘raev Sh.Sh. "Iqtisodiyotda soliq yukini optimallashtirish yo‘nalishlari". i.f.d. uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent.-2021 y, Xotamov K.R. "Bilvosita soliqlar hisobi, tahlili va auditini takomillashtirish" dissertatsiya i.f.d., T.: 2016 y.136 b., Sanaqulova B.R. "Kichik tadbirkorlik sub’ektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o‘shishini ta’minlash" D.D. T.:2016 y. 120 b., Sanaqulova B.R., Bozorov Q.T., Adizov S.R. "Soliq yuki tahlili». O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Iqtisodiyot nashriyoti. 2017-323.b., Yuldashev O.T. "O‘zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlarini takomillashtirish yo‘nalishlari» i.f.n. dissertatsiyasi, T.: 2011 y. 22 bet., Qurbonov Z.N. "Soliq hisobi va auditining nazariy va metodologik asoslari" dis. I.f.d. Toshkent:. BMA, 2008. 272 b., Isroilov B.I. "Soliqlarning moliyaviy hisobi va tahlilining metodologik asoslari". Dissertatsiya i.f.d., Samarqand - 2006., Isaev F.I. "Soliq tahlili: nazariya va amaliyot». Monografiya. T.: "IQTISODIYOT". 2022-yil. 150-bet., Normurzaev U.X. "Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot». Diss. avtoreferati. – T., 2022. - 22 b. Radjapov U. "O‘zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida soliq tizimini takomillashtirish" i.f.n. ilmiy darajasi olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati.-T:-2006. 9-b.

O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda soliq tizimini optimallashtirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida soliq tizimida soliq yukini baholash va optimal taqsimlashga oid faoliyat olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib, soliq to‘lovchilar zimmasidagi soliq yukini uslubiy jihatdan baholash va uni yanada optimallashtirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, tarixiy-mantiqiy va qiyosiy tahlil, ekspert baholash, reyting baholash, statistik guruhlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yollanadigan jismoniy shaxslar uchun ijtimoiy soliq miqdorini o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga hisoblanadigan ijtimoiy soliq miqdoriga tenglashtiruvchi soliq solish tartibini bixillashtirish orqali soliq to‘lovchilar o‘rtasida soliq yukini teng taqsimlash imkonini oshirish asoslangan;

o‘zining va farzandlarining yoshidan qat’iy nazar, shuningdek qonunchilikka muvofiq yosh oila deb e’tirof etiladigan eri va (yoki) xotini birlari ta’lim olishi uchun ular tomonidan sarflanadigan xarajatlarga nisbatan imtiyoz qo‘llash taklifi asoslangan;

o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga nisbatan, soliq davri davomida ular daromadlarining yuz million so‘mdan oshgan qismiga, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun o‘rnatilgan tartibda soliqqa tortish amaliyotini joriy etish orqali soliq yukining adolatli taqsimlanishini ta’minlash taklif etilgan;

yillik aylanma hajmi bir mlrd. so‘mdan oshgan mahalliy yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lanayotganligini hisobga olib, O‘zbekiston xududida xizmatni ko‘rsatayotgan xorijiy jismoniy shaxslardan ham qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirish orqali qo‘shilgan qiymat solig‘i zanjirining yaxlitligi va uzluksizligini ta’minlash hamda tadbirkorlar uchun teng raqobat muhitini yaratish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

soliq yukiga ta’sir qiluvchi makro va mikro omillar ko‘rsatib berilgan va ularning ta’sir darajasi ilmiy jihatdan asoslangan;

soliq yukini baholash bo‘yicha mavjud yondashuvlarning afzalliklari va kamchiliklari ko‘rsatib berilgan;

mamlakatning soliq siyosatida soliq stavkalari va soliq imtiyozlarini o‘zaro uyg‘unlikda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqligi ilmiy asoslangan;

tadbirkorlik subektlari tomonidan ijtimoiy reestrda kiritilgan fuqarolar ishga qabul qilingan, ushbu fuqarolarga bir yildan kam bo‘lmagan muddat davomida har oy mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining bir baravari miqdoridan kam bo‘lmagan summada ish haqi to‘langan, hamda ularning jami ishchilar sonidagi ulushi 20 foiz va undan yuqori ulushni tashkil qilgan taqdirda, ushbu toifadagi fuqarolar uchun hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i

summasini qaytarib berish va ularga ijtimoiy soliq stavkasini 50 foizga kamaytirish huquqini berish taklifi asoslangan;

chakana savdo va umumiy ovqatlanish, ko'ngilochar maskanlarda xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash, yer solig'i va mol-mulkiga soliq stavkalarini 90 foizga kamaytirish, foyda solig'idan bo'yicha amortizasiya xarajatlarini chegirish huquqini berish taklifi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishining axborot va empirik bazasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar va Iqtisodiyot institutlari materiallari va boshqa sohaviy tashkilotlar hisobotlari, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning monografik tadqiqotlari, o'rganilayotgan muammo bo'yicha davriy nashrlar materiallari ma'lumotlari asosida shakllantirilganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida ilgari surilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan soliq to'lovchilar o'rtasida soliq yukini adolatli taqsimlash, soliqlarni undirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali byudjet tushumlari barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning uslubiy asoslarini yanada kengaytirish hamda ilmiy apparatini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida ilgari surilgan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflardan respublika va mahalliy darajadagi moliya va soliq organlari faoliyatida soliq siyosatini belgilash va takomillashtirishga qaratilgan strategik va taktik bozor qarorlarini ishlab chiqish va asoslash jarayonida, shuningdek, maxsus ilmiy tadqiqotlarning nazariy-uslubiy asoslarini boyitish, kadrlarni o'qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash yo'nalishdagi faoliyat bilan bog'liq jarayonlarni rivojlantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiyotni istiqbolli rivojlantirish hamda soliq yukini optimallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yollanadigan jismoniy shaxslar uchun ijtimoiy soliq miqdorini o'zini o'zi band qilgan shaxslarga hisoblanadigan ijtimoiy soliq miqdoriga tenglashtiruvchi soliq solish tartibini birxillashtirish orqali soliq to'lovchilar o'rtasida soliq yukini teng taqsimlash imkonini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyundagi O'RQ-847-sonli Qonunida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi soliq qo'mitasining 2024-yil 25-martdagi 16/1-28023-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi soliq to'lovchilarga soliq solishda adolatlilik printsipini ta'minlash hamda soliq yukini soliq to'lovchilar o'rtasida teng taqsimlash imkonini oshirgan;

o‘zining va farzandlarining yoshidan qat’iy nazar, shuningdek qonunchilikka muvofiq yosh oila deb e’tirof etiladigan eri va (yoki) xotinining birlari ta’lim olishi uchun ular tomonidan sarflanadigan xarajatlarga nisbatan imtiyoz qo‘llash taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrda O‘RQ-891-son Qonunida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi soliq qo‘mitasining 2024-yil 25-martdagi 16/1-28023-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida fuqarolarning daromadlarini oshirish orqali ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmi yanada takomillashtirilishiga zamin yaratilgan;

o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga nisbatan, soliq davri davomida ular daromadlarining yuz million so‘mdan oshgan qismiga, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun o‘rnatilgan tartibda soliqqa tortish amaliyotini joriy etish orqali soliq yukining adolatli taqsimlanishini ta’minlash taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrda O‘RQ-891-son Qonunida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi soliq qo‘mitasining 2024-yil 25-martdagi 16/1-28023-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi soliq to‘lovchilar o‘rtasida soliq yukini adolatli taqsimlash hamda byudjetga qo‘shimcha tushumlarni jalb qilish bo‘yicha tadbirlar samaradorligini oshirish imkonini yaratgan;

yillik aylanma hajmi 1 mlrd. so‘mdan oshgan mahalliy yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lanayotganligini hisobga olib, O‘zbekiston xududida xizmatni ko‘rsatayotgan xorijiy jismoniy shaxslardan ham qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirish orqali qo‘shilgan qiymat solig‘i zanjirining yaxlitligi va uzluksizligini ta’minlash hamda tadbirkorlar uchun teng raqobat muhitini yaratish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrda O‘RQ-891-son Qonunida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi soliq qo‘mitasining 2024-yil 25-martdagi 16/1-28023-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari toifasini kengaytirish va faoliyat yuritayotgan mahalliy va xorijiy yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun bir xil shart-sharoitlar yaratish borasidagi amaliy harakatlar samarasini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 4 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.


Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, 2 ta respublika hamda 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalarida maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 125 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Soliq yuki shakllanishi va optimallashtirishning nazariy va ilmiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida soliq yukining mazmuni va mohiyatini ochib berishga yo‘naltirilgan bo‘lib, turli olimlarning soliq yukiga oid qarashlari va unga bergan ta‘riflarini chuqur o‘rganib chiqilgan. Soliq yuki shakllanishining konseptual asoslari va uni optimallashtirish muammolari, iqtisodiy faoliyat samaradorligiga ta‘sirini o‘rganish, uning shakllanishi va nisbiy darajasiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash, shuningdek soliq yukining bozor ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanishi, soliqlarning talab va taklifga ta‘sirini baholash bo‘yicha fikrlar yoritilgan.




1-rasm. Laffer egri chizig‘i.⁸

Ma‘lumki, “taklif iqtisodiyoti” nazariyasining izdoshlari, keynschilardan farqli o‘laroq, soliq stavkalarining pasayishi har doim ham soliq tushumlarining kamayishiga va soliq stavkasining o‘sishi esa soliq tushumlarining ko‘payishiga olib kelmaydi, deb hisoblashadi. Amalda, soliq stavkalarining pasayishi ishlab chiqarish hajmining kengayishini rag‘batlantiradi va bu o‘z navbatida soliq tushumlarining ko‘payishiga olib keladi. Umumiy iqtisodiyotdagi soliq yuki ikki subyekt o‘rtasida taqsimlanadi. Mamlakat miqyosidagi jami soliq yuki pirovard natijada yuridik va jismoniy shaxslar zimmasiga borib tushadi.⁹

⁸https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D1%80%D0%B8%D0%B2%D0%B0%D1%8F_%D0%9B%D0%B0%D1%84%D1%84%D0%B5%D1%80%D0%B0


⁹ Directions for optimizing the tax burden in the economy - B.Mahkamov, Sh.Turaev Primedia E-launch Shawnee, USA 2023. 136-bet.



2-rasm. Iqtisodiyotda soliq yukining ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanishi.¹⁰

Soliq yukining taqsimlanishi mahsulotning o'ziga va talabning narx egiluvchanligiga yoki ushbu mahsulot tufayli taklif egiluvchanligiga bog'liq bo'ladi. Yangi soliq siyosatining joriy etilishi iste'molchiga yoki yetkazib beruvchiga va (yoki) xar ikkalasiga ham teng ravishda qo'llanilishidan qat'i nazar, tovar narxining o'zgarishiga olib keladi.

Talab yoki taklif to'liq elastik yoki noelastik bo'lgan taqdirdagina soliq yuki butunlay xaridorga yoki sotuvchiga tushadi. Talab noelastik va (yoki) taklif elastik bo'lsa, soliq yuki xaridorga ko'proq tushadi, lekin agar talab elastik va (yoki) taklif noelastik bo'lsa, sotuvchiga ko'proq tushadi (3-rasm).



3-rasm. Soliq yukining xaridor va sotuvchi o'rtasida taqsimlanishi.¹¹

¹⁰ Muallif ishlanmasi.

¹¹ Muallif ishlanmasi.

Bu yerda, T – Taklif; D – Talab; T_S – Taklif soliq summasi bilan birga; N – Mahsulot narxi; N_S – Mahsulot narxi soliq summasi bilan birga; M – Mahsulot miqdori (soni); M_S – Mahsulot miqdori soliq summasi bilan birga.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekiston iqtisodiyotida soliq yukini tahlil qilish va shakllanishining asosiy omillari**” nomli ikkinchi bobida soliq yukini aniqlash va baholash bo‘yicha mavjud uslubiy yondashuvlarni, jismoniy va yuridik shaxslar soliq yukining amaldagi holatini tahlil qilishga e‘tibor qaratilgan. Mamlakatning barqaror o‘sishi, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirilishi, kam daromadli aholi qatlamini ijtimoiy himoya qilinishini ta‘minlash borasidagi amaliy harakatlarning natijalari tahlili kabi masalalar ko‘rib chiqilgan va baholangan.

Ilmiy adabiyotlarda korxonalar uchun soliq yukini hisoblashning bir qancha usullari mavjud. Har bir usulning asosiy g‘oyasi – iqtisodiyotning turli sohalarida soliq solish darajasini taqqoslash imkonini beradigan iqtisodiyot subyekti soliq yuki ko‘rsatkichini universal qilishdir.¹² Shu asnoda, amalda to‘langan yoki taxmin qilingan (hisoblangan) soliqlarni hisob-kitob qilishda soliqlar tarkibi, soliq yuki ko‘rsatkichidan foydalanish maqsadidan kelib chiqib belgilanishi lozim.

1-jadval

Soliq yukini baholash bo‘yicha ko‘rib chiqilgan yondashuvlarning shartli misolda keltirilgan ko‘rsatkichlar asosidagi qiyosiy solishtirma jadvali¹³

| Metodika | Soliq yuki ko‘rsatkichi |
|---|-------------------------|
| Vazirlar Mahkamasining 1-son Qaroriga asosan tasdiqlangan Nizom | 13,57% |
| Sh.To‘rayev metodikasi | 24,78% |
| I.Niyazmetov metodikasi | 17,48% |
| F.Isayev metodikasi | 13,57% |
| M.N.Kraynina metodikasi | 11,28% |
| A.Kadushin va N.Mixaylovalarning metodikasi | 18,71% |
| M.I.Litvin metodikasi | 24,35% |
| E.A.Kirova metodikasi | 40,12% |
| V.D.Novodvorskiy va R.L.Sabanin metodikasi | 9,57% |
| O.S.Salkov metodikasi | 38,66% |
| E.B.Kozhevnikov, O.P.Osadchaya metodikasi | 13,34% |

Dissertatsiyada keltirilgan shartli misoldagi iqtisodiy faoliyat yakunlarini soliq yukini baholash bo‘yicha ko‘rib chiqilgan yondashuvlar asosida hisob-kitob qilinsa, shubhasiz turlicha natijalarni olish mumkin (1-jadval). Shunga qaramay, mazmunan o‘xshash va hisob-kitobga kiritilgan ko‘rsatkichlarning umumiy jihati yaqin bo‘lgan yondashuvlarda sonlar bir-biriga qisman yaqin ifodalanganligini ko‘rish mumkin.

Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilingunga qadar, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tabaqalashirilgan 4 ta stavkada

¹² “Rossiya Federatsiyasida soliqlar va soliqqa tortish”. V.G.Panskov. O‘quv darslik. M.: Kitob dunyosi, 2013-yil. 335-sahifa.

¹³ Muallif tomonidan soliq yukini hisoblashning keltirilgan usullari asosida tuzilgan.


soliqqa tortilgan bo'lsa, islohot natijasida, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yagona 12 foiz stavkada soliqqa tortilishi belgilandi (2-jadval).

2-jadval

Yalpi daromaddagi soliq ulushi bo'yicha taqqoslama jadval.¹⁴

| Ko'rsatkich nomi | 2018-yilgacha | 2019-yildan keyin |
|--|----------------------|--------------------------|
| Yillik hisoblangan ish haqi miqdori | 42 000 000 | 42 000 000 |
| Hisoblangan soliq, jumladan | 7 124 760 | 5 040 000 |
| I shkala bo'yicha | 0 | - |
| II shkala bo'yicha | 620 064 | - |
| III shkala bo'yicha | 1 705 176 | - |
| IV shkala bo'yicha | 4 799 520 | - |
| Pensiya jamg'armasi | 3 360 000 | - |
| Jami to'lovlar | 10 484 760 | 5 040 000 |
| Yalpi daromaddagi soliqlar ulushi | 25% | 12% |

Soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan chora-tadbirlar fuqarolarning soliq xatti-harakatlarida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Soliq to'lashdan bo'yin tovlash uchun rag'batlantirishning pasayishi soliq to'lovchilar sonining barqaror o'sishi bilan tasdiqlanadi. Soliq to'lovchilar sonining ko'payishi soliq siyosatining iqtisodiyotga ijobiy ta'sirining bilvosita tasdig'idir (4-rasm).



4-rasm. 2018-2022–yillarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari sonining o'sish dinamikasi (nafar).¹⁵

Bunga asosiy sabab sifatida 2019-yildan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ida progressiv soliqqa tortish amaliyotidan proporsional soliqqa tortish tizimiga o'tilganligi va buning natijasida yashirin iqtisodiyot tarkibida

¹⁴ Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shartli misollarda olingan va muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

faoliyat yuritib kelgan juda ko‘p jismoniy shaxslar rasmiy iqtisodiyotga o‘tganlari bilan izohlash mumkin¹⁶.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi 6-son qaroriga asosan yakka tartibdagi tadbirkorlar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son qaroriga asosan esa o‘zini o‘zi band qiladigan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati tasdiqlangan. Xar ikkala normativ hujjatlarda ayni bir faoliyat turi yoki nisbatan o‘xshash bo‘lgan faoliyat turlari keltirilgan. Soliqqa tortish nuqtai nazaridan olib qaralganda, bu xolat ijobiy baholanmaydi. Boisi, yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan o‘zini o‘zi band qiladigan shaxslarni soliqqa tortish amaliyoti hamda ularning soliq yuki darajasi tubdan farq qiladi.

3-jadval

O‘zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ulushi dinamikasi.¹⁷

| Davrlar | Soliq tushumi, mlrd so‘m | Shundan | | |
|----------|--------------------------|---|--|---|
| | | Mamlakat yalpi ichki maxsulotidagi ulushi | Jami budjet daromatlari tarkibidagi ulushi | Bevosita soliq daromadlari tarkibidagi ulushi |
| 2018-yil | 6 422,70 | 1,6% | 8,1% | 41,0% |
| 2019-yil | 12 668,50 | 2,5% | 11,3% | 40,0% |
| 2020-yil | 15 140,80 | 2,5% | 11,4% | 33,5% |
| 2021-yil | 18 917,70 | 2,6% | 11,5% | 32,1% |
| 2022-yil | 24 284,50 | 2,7% | 12,0% | 37,7% |

Mazkur holatlarni ko‘rib chiqib aytish mumkinki, o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish, xususan ushbu toifadagi shaxslarning yillik daromadi 100 mln so‘mdan oshgan taqdirda, ularga nisbatan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun o‘rnatilgan tartibda soliqqa tortish amaliyotini joriy qilish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, ijtimoiy soliq miqdorini o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga bo‘lgani kabi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yollangan jismoniy shaxslarga nisbatan ham qo‘llash ijobiy natija berishi shubhasiz.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishda yana bir muhim masalaga e‘tibor qaratish lozim. Amaldagi qonunchilikga muvofiq, mahalliy yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarga nisbatan (agar oboroti 1 mlrd so‘mdan ohsa) qo‘shilgan qiymat solig‘i undirish amaliyoti mavjud. Shu nuqtai nazardan, mahalliy yakka tartibdagi tadbirkorlar singari O‘zbekiston xududida xizmatni ko‘rsatayotgan xorijiy jismoniy shaxslardan xam qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirish maqsadga muvofiqdir.

¹⁶ Directions for optimizing the tax burden in the economy - B.Mahkamov, Sh.Turaev Primedia E-launch Shawnee, USA 2023. 135-bet.

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Soliq yukini minimallashtirishda, soliq imtiyozlarining ahamiyati katta. Boisi, jismoniy shaxslar tomonidan soliq imtiyozlarini qo‘llash ularning soliqlardan keyin ixtiyorida qoladigan mablag‘larining jami daromadlariga nisbatan salmog‘i oshishiga xizmat qiladi.

4-jadval

2018-2022–yillarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlari tahlili (mlrd so‘m).¹⁸

| Davrlar | Hisoblangan soliq summasi | Imtiyozlardan foydalanigan shaxslar soni | Foydalanilgan imtiyoz summasi | Budjetiga undirilgan soliq summasi |
|-------------|---------------------------|--|-------------------------------|------------------------------------|
| 2018-yil | 7 459,2 | 8 321,0 | 393,1 | 6 423 |
| 2019-yil | 13 470,9 | 33 866,0 | 789,0 | 12 669 |
| 2020-yil | 14 415,2 | 44 093,0 | 917,9 | 15 141 |
| 2021-yil | 19 518,3 | 56 165,0 | 1 073,8 | 18 918 |
| 2022-yil | 24 971,2 | 41 580,0 | 1 028,3 | 24 285 |
| Jami | 79 834,8 | 184 025,0 | 4 202,1 | 77 434,2 |

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko‘ra, agar er (yoki xotini)ning yoshi 26 yoshga to‘lmagan bo‘lsa, ularning birlari o‘qishi uchun yo‘naltirilgan daromadi bo‘yicha imtiyoz qo‘llash huquqi berilgan. Biroq, boshqa normativ xujjatlarga ko‘ra, “yosh oila deb er-xotinning ikkisi ham o‘ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o‘ttiz yoshdan oshmagan yolg‘iz otadan yoki yolg‘iz onadan iborat bo‘lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol)”¹⁹–deb ko‘rsatilgan. Shu jihatdan, qonunchilikda fuqarolarning ta‘lim muassasasiga o‘qishga kirishi uchun yosh chegarasining mavjud emasligini hisobga olib, o‘zining va farzandlarining yoshidan qat‘iy nazar, shuningdek qonunchilikka muvofiq yosh oila deb e‘tirof etiladigan eri va (yoki) xotini birlari ta‘lim olishi uchun yo‘naltirgan daromadlariga nisbatan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyoz qo‘llash huquqining berilishi tavsiya etiladi.

Ma‘lumki, soliq turlari va to‘lov muddatlarining hamda korxonalar faoliyat natijalarining raqamlardagi ifodasi bo‘lmish hisobot shakllari sonining ko‘pligi xo‘jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy munosabatlarida tushunmovchilik va noaniqliklarni keltirib chiqarishi tabiiy. Soliq islohoti konsepsiyasi doirasida ham ayni shu masalalarga alohida e‘tibor qaratilgan.

2018-yilda yirik va o‘rta korxonalar soliq yuki darajasi kichik korxonalar soliq yuki darajasidan deyarli uch baravar ko‘p edi (mos ravishda 32,8 foizga 11,8 foiz). Soliq islohoti natijasida yirik va o‘rta korxonalar soliq yuki sezilarli darajada kamaydi (32,8 foizdan 23,9 foizga tushdi), aylanmasi 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan kichik korxonalar soliq yuki deyarli o‘zgarmadi. Shu bilan birga,

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son Qonuni.

aylanmasi 1 mlrd so‘mdan ortiq bo‘lgan kichik korxonalar uchun soliq yuki sezilarli, 8,5 foizdan 13,2 foizgacha oshdi (5-jadval).

5-jadval


2018 va 2022–yillarda soliqlarning yalpi tushumdagi ulushining taqqoslama jadvali (shartli misollarda, ming so‘mda).²⁰

| Ko‘rsatkich nomi | 2018-yil | | 2022-yil shartlaridagi 2018-yil | |
|--|------------------------|---------------------------|---------------------------------|-------------------------|
| | Umumbelgilangan tartib | Soddalash-tirilgan tartib | 1 mlrd so‘mdan oshgan | 1 mlrd so‘mdan oshmagan |
| Sotishdan yalpi tushum (QQS bilan) | 80 000 | 80 000 | 80 000 | 80 000 |
| Sof tushum (QQS siz) | 66 667 | 76 000 | 69 565 | 76 800 |
| Mahsulot tannarxi, shundan | 60 000 | 60 000 | 60 000 | 60 000 |
| <i>Ish haqi xarajatlari</i> | 30 000 | 36 000 | 36 000 | 36 000 |
| Yalpi foyda | 6 667 | 16 000 | 9 565 | 16 800 |
| Soliqlar, shu jumladan: | | | | |
| <i>QQS</i> | 13 333 | - | 10 435 | - |
| <i>Yagona ijtimoiy to‘lov</i> | 7 500 | 5 400 | 4 320 | 4 320 |
| <i>Mol-mulk solig‘i</i> | 3 310 | - | 1 000 | 1 000 |
| <i>Yer solig‘i</i> | 1 200 | - | 2 000 | 2 000 |
| <i>Foyda solig‘i</i> | 933 | - | 1 339 | - |
| <i>Yagona soliq to‘lovi</i> | - | 4 000 | - | 3 200 |
| Jami soliq to‘lovlari | 26 277 | 9 400 | 19 094 | 10 520 |
| Yalpi tushumdagi barcha soliqlarning ulushi | 32,8% | 11,8% | 23,9% | 13,2% |

Bugungi kunda, soliqni rejalashtirish korporativ boshqaruvning ajralmas qismi bo‘lib, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilgan holda soliq yukini optimallashtirishga qaratilgan. Zamonaviy korxonalar raqobatbardoshligini oshirish uchun soliqni rejalashtirish vositalaridan tobora ko‘proq foydalanmoqdalar. Shu munosabat bilan, ko‘plab kompaniyalarda soliqlarni rejalashtirish va soliq xatarlarini minimallashtirish uchun mas’ul bo‘lgan maxsus bo‘linmalar faoliyat yuritishadi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qabul qilinadigan moliyaviy qarorlar mamlakatda amalda bo‘lgan barcha soliq turlariga bog‘liq bo‘ladi.

Soliq imtiyozlari budjetga tushumlarni kamaytirgani bois, fiskal nuqtai nazardan ularni amalda qo‘llash davlat manfaatlariga mos emas. Ammo, soliq imtiyozlari tufayli biznesning rivojlanishiga, tadbirkorlar daromadining o‘sishi esa soliq bazasining kengayishiga va budjetga soliq tushumlarining ko‘payishiga olib keladi.

²⁰ Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar shartli misollarda olingan va muallif tomonidan tuzilgan.



5-rasm. 1997-2022–yillar davomida yuridik shaxslar uchun soliq turlari kesimida amalda bo‘lgan soliq imtiyozlari soni.²¹

5-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 1997–2013-yillar oralig'idagi davrda yuridik shaxslar uchun 9 ta soliq turlari bo'yicha jami 82 ta soliq imtiyozlari amalda bo'lgan bo'lsa, 2014–2017-yillar oralig'idagi davrda esa jami 118 ta soliq imtiyozlari mavjud bo'lgan. 2018-2022-yillarda soliq imtiyozlarining bu qadar keng ko'lamda taqdim etilishi 2020-yili kuzatilgan koronavirus pandemiyasi bilan bevosita bog'liq. Davlatning soliq imtiyozlarini qo'llashi shubhasiz, imtiyozga ega soliq to'lovchilar soliq yukining bir qismi yoki butun qismi boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga o'tishiga sabab bo'ladi.

6-jadval

Yuridik shaxslar uchun ayrim soliq turlari bo'yicha soliq stavkalarining o'zgarish dinamikasi, foizda.²²

| Soliq turlari | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2022-yilda 2018-yilga nisbatan o'zgarish, barobar* |
|--|----------|----------|----------|----------|----------|--|
| Foyda solig'i (asosiy iqtisodiyot subyektlari uchun) | 14 | 12 | 12 | 15 | 15 | ▲ 1,07 |
| Qo'shilgan qiymat solig'i | 20 | 15 | 15 | 15 | 15 | ▼ 1,33 |
| Yagona soliq to'lovi, 2019-yildan AOS (asosiy iqtisodiyot subyektlari uchun) | 5 | 4 | 4 | 4 | 4 | ▼ 1,25 |
| Yagona ijtimoiy to'lov, 2019-yildan ijtimoiy soliq | 15 | 12 | 12 | 12 | 12 | ▼ 1,25 |
| Mol-mulk solig'i | 5 | 2 | 2 | 2 | 1,5 | ▼ 3,33 |

* bu yerda soliq stavkasining pasayish tendensiyasi ijobiy baholanadi.


²¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

²² Muallif ishlanmasi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Iqtisodiy o‘shni rag‘batlantirish maqsadida soliq yukini optimallashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda mamlakat soliq siyosatining iqtisodiy o‘shga ta‘sirini baholash va takomillashtirish, soliq yuki darajasining mamlakat iqtisodiy jozibadorligiga ta‘siri sifatidagi o‘rni va zarurati, globallashtirish sharoitida mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘shini ta‘minlash maqsadida soliqqa tortish sohasidagi hamkorlikni takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari, kapitalning xalqaro harakatchanligi natijasida ayrim soliq to‘lovchilarning o‘z daromadlarini yashirish orqali soliq yukini boshqa soliq to‘lovchilarga o‘tkazish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar hamda ekspertlarning baholashlari va prognozlari tadqiq etilgan.

Yurtimizda soliq yukini kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va teng raqobat sharoitini yaratish va korxonalar va tashkilotlar uchun uzoqqa mo‘ljallangan soliq siyosatini belgilash uchun dastur-ul amal bo‘lib xizmat qiladigan maqbul soliq siyosatini yaratishga qaratilgan ko‘plab amaliy ishlar olib borildi.

2022-yil yakunlariga ko‘ra, konsolidatsiyalangan budjet (davlat budjeti va maqsadli davlat jamg‘armalari) daromadlari 254,6 trln so‘mni tashkil etdi. Ko‘rinib turibdiki, konsolidatsiyalangan budjet daromadlarining YaIMga nisbati dinamikada deyarli o‘zgarmadi va aksincha o‘sh tendensiyasiga ega bo‘ldi.



6-rasm. 2018-2022–yillarda YaIM va konsolidatsiyalangan budjet daromadlarining o‘zgarish dinamikasi.²³

